



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident qaroriga ko'ra

To'rtta sport maktabi aniq sport turlariga ixtisoslashtiriladi

Joriy yilning 18-dekabr kuni davlatimiz rahbarining "Yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, 2025-2026-o'quv yilidan sport maktablarini aniq sport turlariga ixtisoslashtirish amaliyoti joriy etiladi. Bunda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari, aholi va yoshlarning qaysi sport turiga qiziqishi, erishayotgan natijalari hamda mavjud sport infratuzilmasi hisobga olinadi.

Jumladan, Samarqandda dastlabki bosqichda to'rtta sport muassasasi - Past Darg'om tumanidagi 1-sport maktabini dzyudoga, Samarqand shahridagi 2-sport maktabini futbolga, Oqdaryodagi sport maktabini yunon-rum kurashiga, Paxtachidagi sport maktabini badiiy gimnastikaga ixtisoslashtirish rejalashtirilgan.

Ommaviy sport bo'yicha trener-seleksioner iqtidorli o'quvchilarni sport maktablariga jalb qiladi

Iqtidorli sportchilarni saralash va shu asosda milliy terma jamoaning zaxirasini shakllantirib borishda sport maktablari faoliyatini to'g'ri tashkil etish asosiy vazifa sanaladi. Masalan, shu kungacha qadar sport maktablarini maktabgacha va maktab ta'limi bilan bog'lovchi aniq mexanizm yo'q edi. Mazkur qaror bilan sport maktablarida ommaviy sport bo'yicha trener-seleksioner lavozimi joriy etilmoqda.

Endilikda ana shu trener-seleksioner bevosita umumta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Mahalla va davlat ta'lim muassasasidagi iqtidorli yoshlarni sport maktablariga jalb etish bo'yicha amaliy ishlarni yo'lga qo'yadi. Shuningdek, ommaviy sport bo'yicha trener-seleksionerga 5 tagacha mahalla va uning hududidagi davlat ta'lim muassasalari birlashtiriladi. Ular yoshlar yetakchilari va jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan hamkorlikda "Besh tashabbus olimpiadasi", "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari va boshqa ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazib borishga mas'ul bo'ladi.

Payshanba – jismoniy tarbiya va sport kuni

Prezident qarori bilan haftaning payshanba kuni jismoniy tarbiya va sport kuni sifatida belgilandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va fuqarolarning jismoniy faolligini oshirishdan iborat. Jismoniy tarbiya va sport kunlari doirasida viloyatda "Besh ming qadam", "Avtomobilsiz kun", yurish, yugurish marafonlari, korxonalar va tashkilotlarda ommaviy sport musobaqalari muntazam tashkil etiladi.

Bahodir BERDIQULOV,
pedagogika fanlari nomzodi,
faxyriy sportchi.



Samarqand shahridagi Yoshlar markazida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev viloyat tadbirkorlari bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda viloyat, shahar va tuman hokimlarining o'rinbosarlari, sektor rahbarlari ishtirok etdi.

Ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvda 250 ga yaqin tadbirkor duch kelayotgan muammolari va soha rivojiga doir takliflarini bildirdi.

Tadbirkor Alisher Jalilov Samarqand tumanida 165 o'rinni tibbiy klinika qurib, saraton kasalligini davolash uchun eng zamonaviy nur terapiyasi uskunalari bilan jihozlagan. Tadbirkorning bildirishicha, bu kabi uskunalar respublikamizning uchta hududida mavjud, ammo ayrim sabablarga ko'ra obyektning foydalanishga topshirishda muammolar yuzaga kelmoqda.

- Qiymati 25 million dollar bo'lgan loyihada yillik qatnov 5 ming bemorni tashkil etadi, - deydi A.Jalilov. - 4 gektar maydonda bino qurilib, bemorlar uchun xonalar tayyor holga

Tashabbuskor, intizomli tadbirkor qo'llab-quvvatlanadi

keltirilgan, uskunalari o'rnatilgan bo'lsa-da, kadastr sohasida, liftni sertifikatlash va litsenziya muammolari tufayli korxonamiz ish boshlay olmayapti.

Viloyat hokimi barcha masalalarni tezda hal etish va klinikani ishga tushirish bo'yicha ko'rsatma berdi.

Xitoylik investor Van Ji Chong Ishtixon tumanida quritilgan meva ishlab chiqarish loyihasini ishga tushirgan. Xitoy zavodlari bilan mayiz, quritilgan o'rik va mosh mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha 8 million dollarlik shartnoma tuzgan. Ammo o'simliklar karantini va himoyasi agentligidan sertifikat kutayotganligi tufayli hozirgacha mahsulot jo'natilmayotganini bildirdi. Tadbirkorning muammosi ham nazoratga olinib, unga har tomonlama ko'mak ko'rsatilishi bildirildi.

Obyektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, foydalanishga topshirish, kredit



ajratish, elektr energiya, arxitektura-qurilishga oid va boshqa muammolar yuzasidan turli murojaatlar bildirildi.

- Men tartibli, intizomli, vatanparvar tadbirkorlarimni qo'llab-quvvatlayman va barcha choralarini bunday tadbirkorlarni qo'llashga da'vat etaman, - dedi A.Boboyev. - O'zim ham shaxsan bunday tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlayman. Viloyatning tuman va

shaharlarida tadbirkorlik muhitini yaxshilash borasida qanday taklif yoki tadbirkorligingizga to'sqinlik qilayotgan muammo bo'lsa, ijobiy yechim topish uchun barcha choralarini ko'ramiz.

Har bir murojaat nazoratga olindi, aniq muddat belgilanib, mas'ullarga topshiriqlar berildi.

O'.XUDOYBERDIYEV,
B.MUSTANOV (surat).

Bosh archa o'rnatildi

Yangi yil bayrami munosabati bilan viloyatimizning barcha shahar va tumanlari markazida bayram archalari o'rnatildi.

Viloyatning bosh archasi Samarqand shahridagi Ko'ksaroy maydonida, viloyat musiqali drama teatri oldida joylashtirildi. Maydon bayram ruhiga mos tarzda bezatildi.

Shuningdek, Sartepa maskani, Temiryo'l vokzali maydoni, Kimyogarlar qo'rg'oni va Qorasuv massivida bayram archalari o'rnatilmoqda.

Mazkur hududlarda 20-dekabrda 2025-yilning 10-yanvariga qadar madaniy dasturlar namoyish etilishi, savdo yarmarkalari o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Viloyat hokimligi Samarqand shahrida "Eng chiroyli archa", "Eng yaxshi bezatilgan ko'cha", "Eng yaxshi bino" kabi nominatsiyalar bo'yicha tanlov e'lon qildi.



Samarqand shahridagi Yoshlar markazida viloyat rahbari Adiz Boboyev rahbarligida yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha o'tkazilgan muhokama yig'ilishida ayni savol o'rtaga tashlandi.

Yoshlar nega jinoyatga qo'l urmoqda?

Sektor rahbarlari, masalaga daxldor idora va tashkilot mas'ullari ishtirok etgan tadbirida dastlab yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikning o'tgan 11 oydagi ko'rsatkichlari tanqidiy tahlil qilindi.

Ma'lumotga ko'ra, joriy yilning 11 oyi davomida sodir etilgan umumiy jinoyatlarining 29,6 foizi, ya'ni 1556 tasi yoshlar hisobiga to'g'ri keladi. O'tgan yilning mos davrida bu ko'rsatkich 1309 ta bo'lib, o'sish 18,9 foizni tashkil qilmoqda. Mazkur jinoyatlar turlari bo'yicha tahlil etilsa, eng ko'pi o'g'irlikka to'g'ri keladi. 11 oyda yoshlar tomonidan 171 marotaba o'g'irlik sodir etilgan. Keyingi o'rinda firibgarlik (168 ta), tan jarohati yetkazish (157 ta) turibdi.

Tadbirida mas'ullarning mavzu bo'yicha hisobot va izohlari tinglandi. Jumladan, mazkur davrda viloyat ichki ishlar boshqarmasi va boshqa idoralari tomonidan o'talikka olingan yoshlarda huquqiy savodxonlik va qonunga itoatkorlik hissinini oshirishga qaratilgan maxsus huquqiy profilaktik tadbirlar, turli tanlov va musobaqalar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Joylarda yoshlar bilan o'tkazilgan yakka tartibdagi suhbatlarda 5011 nafar yoshda ijtimoiy va maishiy muammolar aniqlanib, 3592 nafarining muammolari hal etilgan.



Yig'ilishda profilaktik tadbirlar samaradorligi, jarayonda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar muhokama qilindi. Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish uchun avvalo, uning sabablarini bartaraf etish kerakligi, yosh avlodni qiynayotgan muammolarni yechish jarayonida hamkorlikni kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi. Yakunda mas'ullarga aniq vazifalar berildi.

Past Darg'omda maxsus sanoat zonasi tashkil etiladi

Viloyatimizda ishga solinmagan imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalanish, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va xizmat ko'rsatish sohalarni jadal rivojlantirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash va shu orqali aholi bandligini ta'minlash, yangi daromad manbalarini yaratish maqsadida shu yilning 29-noyabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan "Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Qarorda viloyatimizni har tomonlama rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish yuzasidan muhim vazifalar belgilab berildi.

Xususan, 2025-yilda umumiy qiymati 8,5 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar doirasida 3,6 milliard dollar investitsiya o'zlashtirish, 320 ming aholi bandligini ta'minlash va 850 million AQSh dollari miqdoridagi mahsulot eksportini amalga oshirish, viloyatga 5 million mahalliy va 2,5 million xorijlik

turistni jalb qilish belgilandi.

Qarorga ko'ra, Past Darg'om tumanidagi Chimboyobod massivida tuman hokimligi zaxirasidagi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 234,3 gektar yer maydonida "Pastdarg'om" maxsus sanoat zonasi faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Maxsus sanoat zonasining faoliyat ko'rsatish muddati keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30 yil etib belgilangan.

"Pastdarg'om" maxsus sanoat

zonasi joylashayotgan yer uchastkalari doimiy foydalanish huquqi bilan "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi" davlat unitar korxonasi ajratib berilib, shartnoma asosida maxsus sanoat zonasini boshqarish maqsadida xorijiy va mahalliy investorlar muassisligidagi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar shaklida bir yoki bir necha boshqaruv kompaniyalari tashkil etiladi.

Qarorda maxsus sanoat zonasining faoliyatini muvofiqlashtirish, uning hududini boshqaruv kompaniyalari o'rtasida taqsimlash, investitsiya loyihalarini saralab olish va joylashtirish viloyat hokimi bilan kelishilgan holda "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi" DUK va boshqaruv kompaniyalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Maxsus sanoat zonasida farmatsevtika, elektrotexnika, to'qimachilik, charm-poyabzal, kimyo sanoati, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash

kabi yo'nalishlarda zamonaviy, energiya tejovchi va yuqori texnologiyali loyihalar amalga oshiriladi. Qiymati kamida 500 million AQSh dollariga teng to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'zlashtirilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, bosh rejaga asosan maxsus sanoat zonasi hududida tayyor ishlab chiqarish bino-inshootlarini qurish va ijaraga berish uchun alohida lotlar belgilanadi va elektron onlayn auksion savdolariga chiqariladi.

Qarorning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, 2025-yil 1-yanvardan boshlab, erkin iqtisodiy, yoshlar va sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun auksion orqali yer ijaraga olinganda ijara to'lovlari loyiha ishga tushgunga qadar, biroq 2 yildan ko'p bo'lmagan muddatga to'lashni kechiktirish tartibi joriy qilinadi.

"Pastdarg'om" maxsus sanoat zonasi boshqaruv kompaniyalarini tashkil etish maqsadida xorijiy va mahalliy investorlarni hamkorlikka chorlaymiz.

Jamshid HAYDAROV,
viloyat hokimining o'rinbosari –
"Urgut" erkin iqtisodiy zonasi
direksiyasi rahbari.

Sarhisob



O'ZBEKISTON STRATEGIYASI | 2030

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi «O'zbekiston-2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmoniga asosan, energiya resurslarini iqtisod qilish, transport xizmatlari, yo'l infratuzilmasi, aholining ichimlik suv ta'minotini yaxshilash, aholini uy-joylar bilan ta'minlash, yashillik darajasini oshirish hamda maishiy chiqindi xizmatlari sifatini oshirish kabi bir qator vazifalar aniq belgilab berilgan.

«O'zbekiston-2030» strategiyasi ijrosi

bo'yicha viloyatda qanday ishlar amalga oshirilgan?

Viloyat hokimligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, strategiyada belgilangan vazifalar ijrosi yuzasida bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish bo'yicha viloyatda 84,2 MVt, shundan ijtimoiy soha obyektlariga 17 MVt, mahalliy tadbirkorlik subyektlarida 44,6 MVt, aholi xonadonlariga 22,1 MVt va yangi qurilgan ko'p qavatli uy-joylarning tom qismiga 0,5 MVt qu-yosh panellari o'rnatilgan.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan samarali chora-tadbirlar natijasida joriy yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari-ning jami iste'moldagi ulushi 8,9 foizga yetkazilgan.

O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integ-ratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish bo'yicha joriy yilning o'tgan davrida 352,3 million nafar yo'lovchiga transport xizmatlari ko'rsatilib, yo'lovchi tashish xizmatlari hajmi 104 foizga yetkazilgan.

Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish bo'yicha viloyatda 11300 ta xonadonli 182 ta uy-joy qurilishi belgilangan. Mazkur reja asosida bugungi kunga qadar 3797 xonadonli 62 ta uy-joy foydalanishga topshirilgan.

Shuningdek, Bulung'ur va Urgut tumanlaridan tashqari Toyloq tumani va Samarqand shahrida «Yangi O'zbekiston» massivlari qurilishi boshlandi.

Yangi uy-joylar qurilishi natijasida yil yakuniga qadar urbanizatsiya darajasini 37,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Umuman, joriy yilning o'tgan davrida viloyatda 9 trillion 147 milliard so'mlik qurilish-pudrat ishleri amalga oshirildi.

Aholining ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash maqsadida joriy yilning o'tgan davri mobaynida 492,1 kilometr suv tarmoqlari va 93 ta suv inshooti qurilib,

aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 77,6 foizga yetkazilgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-no-yabr oylarida shahar va qishloqlardagi mahallalarning 3 ming kilometr uzunlikdagi ichki avtomobil yo'llarini asfaltlash va shag'allashtirish ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari, «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida joriy yilning bahor mavsumida 11,6 million tup (reja-ga nisbatan 114 foiz) manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlari ekilgan bo'lsa, kuz mavsumida 6,5 million tup ko'chat o'tqazildi.

Bahorda 36 ta yirik sanoat korxonasi tomonidan o'z va tashish hududlarida 87 ming tup, kuzda esa 51 ming tup ko'chat ekilib, «yashil belbog'lar yaratildi.

Viloyatda bu kabi tadbirlar orqali yashillik darajasi 8,7 foizga yetkazildi.

Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha viloyatdagi 1126 ta mahalladan 1123 tasi qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari bilan qamrab olingan. Chiqindilarni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi 19 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan joriy yilning o'tgan davrida 24 ming 272 tonna polimer mahsulotlari, qog'oz-karton chiqindilari qayta ishlanib, chiqindilarni qayta ishlash darajasi 38 foizga yetkazildi.

Asosiysi, Ishtixon hamda Jomboy tumanlaridagi 2 ta maishiy chiqindi poligoni yopilib, maishiy chiqindi poligonlarini qisqartirish darajasi 7,5 foizga yetkazildi.

Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash-ga oid keskin choralar ko'rish bo'yicha viloyatdagi 7 ta sanoat korxonasida lokal oqova suv tozalash inshootlarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunda «Urgut EIZ direksi-yasi» DUK va «Vintradition» MChJ lokal oqova suv tozalash inshootlarini qurish ishlari davom etmoqda.

Y.MARQAYEV tayyorladi.

“Qayerga borsang boraver, sen-ga kim ham quloq solardi!” Bu – eri va hatto bolalari tomonidan muntazam kamsitilib kelinayot-gan ayolga eri tomonidan aytib kelinayotgan tahdidlardan biri. Ayol bunday xo'rliklarga chiday olmay, tegishli idoraga murojaat qildi. Murojaat natijasi qanday bo'ldi? Umuman, bu ayolni eri, bolalari nega haqorat qiladi o'zi?

Gap zo'ravonlik, tazyiq haqida ketganida hanuzgacha ensasi qotadigan amaldorlar kam emas. Bu masalada haliyam ayolni ayblaydigan ayollar ham bor hatto. Bunday jamiyatda ushbu masalada gapirish, ayollarni himoya qilish yengil kechmasligi tabiiy. Ammo keyingi paytda ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda, bu borada jiddiy qadamlar tashlandi. Tegishli idoralarda bu masala bilan shug'ullanadigan shtatlar ajratildi, oiladagi, umuman, xotin-qizlarga nisbatan bo'layotgan zo'ravonlik, tazyiqlar-ga e'tibor kuchaydi.

- Ko'pchilik oiladagi notinchliklarga ichki ishlar idoralari xodimlari aralashsa, bu oiladagi keyingi vaziyat yaxshilanmaydi, degan fikrda, - deydi viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Nigora Yodgorova. - Aksincha, oiladagi zulm, tazyiq davom etaversa, bu xonadonda bir kuni jinoyat sodir etilishi mumkin. Uydagi gapni ko'chaga chiqarma, milisani aralash-tirsang, oila deganing oila bo'lmaydi, degan fikr vaziyatni yanada og'irlashtiradi.

Viloyat bo'yicha yil davomida 2033 nafar xotin-qizga himoya orderi berilgan. Tazyiq va zo'ravonlik sodir etilgan joylar haqida gap ketganda, ularning 1814 tasi oilada, 177 tasi ko'chada, 14 tasi jamoat joyida, 15 tasi ta'lim muassasasi hamda 13 tasi ish joyida yuzaga kelganini aytish joiz. Himoya orderlarining katta qismi er tomonidan xotiga o'tkazilgan zo'ravonlik natijasida berilgan. Keyingi yillarda yana bir holatni kuzatish mumkin, ya'ni qaynonal-ga kelinlaridan himoyalash uchun himoya orderlari berilayotgani. Jumladan, bu yil kelinlarning qaynonasiga zug'um o'tkazgani uchun 32 nafar qaynonaga himoya orderi berildi. 57 nafar kelinga esa qaynona to-monidan o'tkazilgan tazyiq tufayli shunday hujjat taqdim etildi. Shuningdek, boshqa turli holatlar bo'yicha 499 holatda jabrlan-

Qaynonalarga ham himoya orderi berilyapti

ganlarga order rasmiylashtirilgan.

Tazyiq va zo'ravonlikning 781 tasi jis-moniy zo'ravonlik, 5 tasi jinsiy zo'ravonlik, 7 tasi iqtisodiy zo'ravonlik, 930 tasi esa ruhiy zo'ravonlik, 310 tasi esa tazyiq sirasiga kiradi.

Aholi orasida xotin-qizlarning zo'ravon-liklarga sabr qilishi emas, balki ularni vaqti-da tegishli tashkilotlarga yetkazish kerakligi haqida doimiy targ'ibot ishlarini olib boramiz. Har bir shahar va tumandagi ichki ishlar idoralarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlarimiz ishlayapti.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan, bir necha yildan beri turmush o'rtog'i tomonidan kaltaklanayotgan ayolda ruhiy xastalik mavjud. Bu xastalik o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. To'rtinchi farzandini dunyoga keltirganidan so'ng chaqaloq ko'p yashamay, nobud bo'ladi. Turmush o'rtog'i Rossiyada bo'lgani sababli qaynona har soniyada kelinga tazyiq o'tkazib, “O'g'lim kelsa, seni o'ldiradi, nevaramni nobud qilding”, deya gapirishdan to'xtamaydi. Bu gap-so'zlardan so'ng kelinning ruhiyatida o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Yillar o'tib, o'g'il Rossiyadan kelsa, farzandi nobud bo'lgani kamday, ayolning salomatligi ham haminqadar ekanini ko'radi. Buni qarangi, bu sinovlar o'g'lini sergak torttirmaydi, aksincha, ayolini do'pposlab, alamin oladi. Ba'zida sog', ba'zida nosog' ayol ham taqdirim shunaqa ekan, deya ko'nib yuraveradi. Buni qarangi, bu oilada ulg'ayayotgan farzandlar ham otasidan ulgi olib, onasini kalaka qiladi, hatto qo'l ko'taradi. Bu azoblardan charchagan ayol oxiri ichki ishlar idorasiga murojaat qiladi.

- Ruhiy xasta insonlarning murojaati har doim ham jiddiy qabul qilinmaydi ba'zi idoralarda, - deydi Oqdaryo tumani ichki ishlar bo'limining xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor Dildora Eshon-qulova. - Lekin bu ayol kelganda yuzlari shishgan, ko'kargan edi. Shuning uchun ham bu ish bilan jiddiy shug'ullanishga kirishdim. Avvalambor, u ayol oilasi bilan yashayapti, bir umr qiynaldi, eng yomoni, bugun farzandlari uning yoniga kirib, qanot bo'lish o'rni kalaka qilyapti. Turmush o'rtog'iga bunday vaziyatda unga qanday chora ko'rinishini aytib, ogohlantirdim. Ayol-ga himoya orderi berildi. Mahalla va boshqa tashkilotlarning shu oiladagi muhitdan xabardor bo'lishini ta'minladik. Hozircha bu



oilada vaziyat yaxshi, lekin ulardan doimiy xabardor bo'lib turish kerak.

Tumanda bu yil 151 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi. Himoya orderi beril-ganda zo'ravonlik sodir etgan shaxsga uning xatti-harakatlari qonunga zid ekanligi, agar bir oy ichida yana shu holat takror-lansa, unga ma'muriy javobgarlik, ya'ni 15 sutka belgilanishi tushuntirildi. Yil boshidan beri 8 holatda zo'ravonlik takrorlangani uchun ma'muriy qamoq jazosi belgilandi. Shu yildan boshlab biz faoliyatimizni ijtimoiy xizmat xodimlari bilan hamkorlikda olib boryapmiz. Ijtimoiy xizmat xodimlarining asosiy vazifalaridan biri zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatish bo'lgani uchun bu masalada hamkorligimiz samarali bo'lmoqda. Ikki nafar ayolning oilasida vaziyat og'ir bo'lgani uchun ularni reabilitatsiya markaziga joylashtirdik.

To'g'ri, bu raqamlar bizga bo'lgan murojaatlar asosida olib borgan ishlarimiz natijasi. Ammo oilasida doimiy kaltaklanib, bu haqda hech kimga bildirmay yasha-yotgan ayollar ham bor, afsuski. Shuning uchun joylarda targ'ibot tadbirlarini olib borgan paytimizda xotin-qizlarga qo'shningiz uyida sodir bo'layotgan zo'ravonliklarga befarq bo'lmang, anonim tarzda bo'lsa ham bu voqealardan bizni xabardor qiling, deb tushuntiramiz.

Zo'ravonlik masalasi faqat ayollar erlari-dan jabr chekadi, deb o'ylaymiz. Ammo qaynonalarga himoya orderlari berilayot-gani, kelinning zug'umidan qiynalayotgan yoshi ulug' onaxonlarning ko'payotganini nima bilan izohlashni bilmaysan kishi.

Gulruh MO'MINOVA.

BU FAKT!

Viloyatimizda ijtimoiy soha muassasalariga 2024-yilda mahalliy budjetdan jami 4 trillion 333,8 milliard so'm mablag' ajratilgan va yil yakunigacha 4 trillion 333,6 milliard so'm kassa xarajati amalga oshirilishi kutilmoqda.

Qaynonalarga ham himoya orderi berilyapti. Xalq deputatlari viloyat Kengashiga O'zLiDeP-dan deputat Mo'tabar Yuldasheva hamda Toyloq tuman Kengashiga saylangan deputat Nasiba Mo'minova Toyloq tumanidagi Xo'ja-qishloq va Yastepa mahallalaridagi maktab, oilaviy shifokorlik punkti, maktabgacha ta'lim muassasalarida bo'lib, ular faoliyati, yaratilgan sharoitlarni o'rgandi.

Deputatlar saylovchilar bilan uchrashdi



Deputatlar Xo'jaqishloq mahallasi "ettiiligi" ish faoli-yati bilan tanishib, fuqarolar va tadbirkorlar muammo-larini tingladi. Xo'jaqishloq, Saribozor, Jumabozor, Jalolobod mahallalarida elektr energiyasi quvvati kamligi, shu hududga alohida elektr tarmoqi tortib ke-lish masalasi ko'tarildi. Shuningdek, mahalla hududida yengil konstruksiyali kutubxon tashkil etish bo'yicha taklif bildirildi. Ushbu masalalar deputatlar tomonidan o'rganilib, mutasaddi tashkilotlarga deputatlik so'rov-lari chiqarilib, nazoratga olinadigan bo'ldi.

Deputatlar "Bir deputat 100 ayolga ko'makchi" loyi-hasi doirasida mazkur mahallada tashkil etilgan o'quv markazida tikuvchilik va kasanachilikni o'rganayotgan xotin-qizlar bilan suhbatlashdi. Ularga subsidiya ajratish bo'yicha amaliy yordam berishlarini bildirdi.

Shuningdek, deputatlar "Jumabozor" oilaviy shifokorlik punkti, 60-umumta'lim maktabi va 35-MTTda bo'lib, ushbu binolarning isitish tizimini o'rgandi.

Uchrashuvlar davomida mahalla "yettiiligi" bilan ham-korlikda fuqarolarning sayyor qabulini tashkil etish, aholi tomonidan ko'tarilgan muammolarni mahalliy ijro hokimi-yati, mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda joyida hal etish choralarini ko'rish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

O'zLiDeP viloyat kengashi axborot xizmati.

O'ttiz yildan buyon hal etilmayotgan

MEROS MASHMASHASI

Hokimlik tomonidan chiqarilgan birgina no-to'g'ri qaror, g'ayriqonuniy farmoyish jabrini oddiy odamlar yillab tortishi, sarson bo'li-shi mumkinligini nafaqat fuqaro, mas'ullar-niing o'zi ham yaxshi anglasa kerak. Afsuski, shunday hujjatlar hali-hamon bor.



Mana, misol. Mustaqillikning dastlabki yillarida uy-joyga muhtoj bo'lgan otam Boynazar Irsov tuman markaziy shifoxonasi tasarrufidagi eski poliklinika binosini ta'mirlab, turarjoyga aylantirish maqsadida tuman hokimining 1993-yil 10-martda-gi 46-Q-sonli qaroriga binoan sotib olgan va shax-siy mulkiga aylantirgan. Biroq o'ta abgor holatdagi binoni ta'mirlash uchun qo'li kaltalik qilgan.

Afsuski, bizning iddaomizni hech kim tinglama-yapti. Sudga borsak, "Meros guvohnomangiz yo'q, meros ishi oching", deb notarial idoraga yo'llaydi. Notarius "Binoning kadastr hujjatini olib keling", deydi. Kadastr idorasi esa hokimning yuqoridagi qarorini ro'kach qiladi. Xullas, otangga bor, onangga bor, qabilidagi mashmashlardan juda charchadik.

Yaqinda bo'lib o'tgan voqea hammasidan oshib tushdi: Davlat aktivlarini boshqarish agentti-gi viloyat hududiy boshqarmasi otamizdan meros bo'lib qolgan Qo'shrabot shaharchasi, Mustaqillik ko'chasidagi 109-uyini, unda biz yashayotgani-mizni bila turib, auksion savdosiga chiqarib sotib-di. Bunga nima deysiz? Bitta qonunbuzilish ortidan ikkinchisi tug'ilyapti-ku! Fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga mas'ul idoralardan yordam so'rashdan o'zga berishimiz qolmayapti.

Qo'shrabot tumani hokimining birinchi o'rinbosari T.Atayev 1994-yil 23-fevralda imzolagan "Tuman markazidagi davlat fondiga qarashli uy-joylarni imtiyozga ega bo'lgan fuqarolarga shaxsiy mulk qilib berish to'g'risida"gi 57-sonli qarorga nazar solsangiz bunga ishonch hosil qilishingiz tayin.

Xat tahrirsiz bosilmoqda

Mazkur qarorning mazmun-mohiyati sarlavhasidan ko'rinish turibdi. Lekin uning bitta bandida tomdan tarasha tushgandek: "Fuqaro Irsov B.ga tegishli bo'lgan bino "Pichot" mahalla qo'mitasi joylash-ganligi munosabati bilan "Pichot" qishloq fuqarolar yig'ini ixtiyoriga olinsin," deya qistirib o'tilgan.

Xo'sh, bu qaysi quyushqonga sig'adi? Qaysi qonun, qaysi nizomga to'g'ri keladi? Axir hokimlikka birovning mulkini birovga in'om etish vakolati beril-magan-ku. Mana shu qonunbuzulishga qarshi necha yillardan buyon kurashib kelayapmiz. Otam rahmatli adolatni ko'rmay olamdan o'tdi. Xususiyashtirilgan imorat bilan bog'liq mashmashalar farzandlari - biz, merosxo'r-larga qoldi.

Afsuski, bizning iddaomizni hech kim tinglama-yapti. Sudga borsak, "Meros guvohnomangiz yo'q, meros ishi oching", deb notarial idoraga yo'llaydi. Notarius "Binoning kadastr hujjatini olib keling", deydi. Kadastr idorasi esa hokimning yuqoridagi qarorini ro'kach qiladi. Xullas, otangga bor, onangga bor, qabilidagi mashmashlardan juda charchadik.

Yaqinda bo'lib o'tgan voqea hammasidan oshib tushdi: Davlat aktivlarini boshqarish agentti-gi viloyat hududiy boshqarmasi otamizdan meros bo'lib qolgan Qo'shrabot shaharchasi, Mustaqillik ko'chasidagi 109-uyini, unda biz yashayotgani-mizni bila turib, auksion savdosiga chiqarib sotib-di. Bunga nima deysiz? Bitta qonunbuzilish ortidan ikkinchisi tug'ilyapti-ku! Fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga mas'ul idoralardan yordam so'rashdan o'zga berishimiz qolmayapti.

Ahmad IRISOV,
Qo'shrabot tumani.

Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarimizni saqlash va uni yosh avlodga yetkazish muhim masala. To'g'ri, bu borada bir talay ishlar amalga oshirilmoqda, zamonaviy uslublar shakllanyapti.

“Harf almashar bittagina”

Nazarimizda, Ismat Sanayevning asarlarida o'zbek adabiyotining o'ta nozik qirralari, inson ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos yo'llari mujassam. Binobarin, muallifning "Topishmoq zo'r topishmoq" kitobining davomi sifatida chop ettirgan "Harf almashar bittagina" deb nomlangan asarida inson tafakkurini o'stirish, aqlni charxlash, o'quvchi zehni oshirish va ma'naviy zavq olishning yangi usullari ko'rsatilgan.

Tashqaridan qaraganda, asar jo'ngina ko'rinadi. Lekin unda berilgan boshqotirmalar, topishmoq shaklidagi vazifalar o'quvchini o'yilashga da'vat etadi. Bitta harfning o'zgarishi bilan matnda nimalar sodir bo'lishi, ona tilimizning beqiyos imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Beixtiyor ayni shu topshiriqlarni bajarishga, to'g'ri javobni topishga berilib ketasiz. Harflar, aniqrog'i, tovushlar olami ohanrabodek o'ziga torta boshlaydi.

Ismat Sanayev hozirga qadar chop ettirgan bir qator asarlarida unutilib ketayotgan ayrim adabiy janrlarni

qayta tiklashga, o'zbek adabiyotini yangi janr va shakllar bilan boyitishga harakat qiladi. Bu galgi janr – meta-grammalar ham, o'ylaymizki, o'quvchini befarq qoldirmaydi, beixtiyor o'yilashga, fikr qilishga, mushohada yuritishga undaydi. Masalan, quyidagi misralarga e'tibor bering-a:

Zarafshonning bo'yida qorovuli miltiqli,
Baliq tutib yayradik, lekin go'shti qiltiqli.

Hozirgi paytda nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagi kishilar ham asosiy vaqtini qo'l telefonlari bilan o'tkazib, umrini behuda narsalarga sarflamoqda. Vaholanki, Ismat Sanayevning "Harf almashar bittagina" kitobida berilgan so'z o'yinlari inson ma'naviy olamini o'stirishga, o'zini anglashga, farzand tarbiyasida qo'l keladi.

Ravshan JOMONOV,
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
professori.



Ayol uchun ishlab, ham oilada chiroyli tutumni olib borish hech vaqt oson kechmagan. Turmush o'rtog'idan erta ayrilib, farzandlariga ham ota, ham ona bo'lgan ayollarga esa bundan ham qiyin. Ro'zg'or yukini ko'tarib, farzandlari ta'lim-tarbiyasini ham hamma havas qilarli tarzda olib borgan ayolning fidoyiligini hech nima bilan o'lchab bo'lmaydi.

Ustoz, hamkasb, dugona



Dilbar Salomova Samarqand davlat universitetining tarix fakultetini bitirgach, 1974-yilda iqtisodiyot va servis institutida kadrlar bo'limi noziri sifatida ish boshlaydi. 50 yildirki, opa hamon o'z kasbini e'zozlab, faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu sohada qo'lda yuritiladigan hujjatlar allaqachon raqamlashtirildi. Dilbar Fayziyevna kasbining fidoyisi emasmi, zamonaga mos tarzda bu ishlarni hech qiyinchiliksiz kompyuterda bajaryapti, hatto shogirdlariga o'rgatyapti ham.

Yaqinda opaqa samarqandlik bir guruh fidoyilar qatorida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi miqyosida tashkil etilgan "O'z kasbining fidoyisi" ko'krak nishoni topshirildi. Ushbu e'tirofdan opadan ham ko'ra, hamkasbu yaqinlari xursand bo'ldi.

Dilshoda UMAROVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kadrlar bo'limi noziri.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi tasarrufida faoliyat olib borayotgan quyidagi masjidning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi GUVOHNOMALARI yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI:

T/r	Hudud va masjid nomi
Samarqand shahri	
1	"Murod Avliyo" jome masjidi
2	"Faqih Abu Lays" jome masjidi
Samarqand tumani	
3	"Xo'ja Ahrori Vali" jome masjidi
Toyloq tumani	
4	"G'o'lba" jome masjidi
5	"Jumabozor" jome masjidi
6	"O'rta" jome masjidi
Urgut tumani	
7	"Atoullaxon" jome masjidi
8	"G'uzni" jome masjidi
9	"Ispanza" jome masjidi
10	"Qozi Alloyorbek" jome masjidi
11	"Tegana" jome masjidi
12	"O'ramas" jome masjidi
13	"Xoja Amon" jome masjidi
14	"Xo'ja Ubaydullo" jome masjidi
Bulung'ur tumani	
15	"Amir Hamza" jome masjidi
16	"Cho'yantepa" jome masjidi
Jomboy tumani	
17	"Avliyo Qoraxon bobo" jome masjidi
18	"Ibrohim ota" jome masjidi
19	"Islomobod" jome masjidi
20	"Ushuntepa" jome masjidi
21	"Shayx Xudoydod Vali" jome masjidi

Oqdaryo tumani	
22	"Temur" jome masjidi
Ishtixon tumani	
23	"Oqqo'rg'on" jome masjidi
24	"Polvon ota" jome masjidi
Payariq tumani	
25	"Imom al-Buxoriy" jome masjidi
Qo'shrabot tumani	
26	"Baliqchi ota" jome masjidi
27	"Nematullo xo'ja" jome masjidi
Kattaqo'rg'on tumani	
28	"Kichik Mundiyon" jome masjidi
29	"Qalandarxona" jome masjidi
30	"Xo'ja Jarroh" jome masjidi
31	"Chag'atoy" jome masjidi
32	"Cho'yanchi" jome masjidi
33	"Yangi Ravot" jome masjidi
Paxtachi tumani	
34	"Bolg'ali" jome masjidi
Kattaqo'rg'on shahri	
35	"Muhammad Naqibbek" jome masjidi
Nurobod tumani	
36	"Mulla Nazar" jome masjidi
37	"Hazrati Ali" jome masjidi
38	"Xolbekjon" jome masjidi
Past Darg'om tumani	
39	"Nuril islom" jome masjidi
40	"Imom ota" jome masjidi
Jami: 40 ta	

O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi tasarrufida faoliyat olib borayotgan quyidagi masjidning NIZOMLARI yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI:

T/r	Hudud va masjid nomi
Samarqand shahri	
1	"Faqih Abu Lays" jome masjidi
Toyloq tumani	
2	"G'o'lba" jome masjidi

3	"Sada Qayrag'och" jome masjidi
4	"Ukrach" jome masjidi
5	"O'rta" jome masjidi
Urgut tumani	
6	"Atoullaxon" jome masjidi
7	"Bahrin" jome masjidi
8	"Bog'ishamol" jome masjidi
9	"G'uzni" jome masjidi
10	"Qozi Alloyorbek" jome masjidi
11	"Mirzo Ulug'bek" jome masjidi
12	"O'ramas" jome masjidi
13	"Xo'ja Ubaydullo" jome masjidi
Bulung'ur tumani	
14	"Beshariq Chagal" jome masjidi
15	"G'ishtli ota" jome masjidi
16	"Suluvqo'rg'on" jome masjidi
17	"Cho'yantepa" jome masjidi
Jomboy tumani	
18	"Avliyo Qoraxon bobo" jome masjidi
19	"Ibrohim ota" jome masjidi
20	"Islomobod" jome masjidi
21	"Ushuntepa" jome masjidi
22	"Shayx Xudoydod Vali" jome masjidi
Ishtixon tumani	
23	"Oqqo'rg'on" jome masjidi
24	"Polvon ota" jome masjidi
25	"Sug'ot" jome masjidi
Payariq tumani	
26	"Imom al-Buxoriy" jome masjidi
27	"Olim Shayx" jome masjidi
Qo'shrabot tumani	
28	"Baliqchi ota" jome masjidi
29	"G'oyib ota" jome masjidi
30	"G'ujum ota" jome masjidi

31	"Domla Kamoliddin Oxun" jome masjidi
32	"Qovunchi" jome masjidi
33	"Nematullo xo'ja" jome masjidi
34	"Saroy" jome masjidi
Kattaqo'rg'on tumani	
35	"Abdumannon so'fi" jome masjidi
36	"Xo'ja Abdurahmon ota" jome masjidi
37	"Abul Hasan Andoqiy" jome masjidi
38	"Yoqub Mulla Anna o'g'li" jome masjidi
39	"Yonbosh" jome masjidi
40	"Kichik Mundiyon" jome masjidi
41	"Koshon ota" jome masjidi
42	"Qalandarxona" jome masjidi
43	"Qumqo" jome masjidi
44	"Moybuloq" jome masjidi
45	"Mulla Normamat" jome masjidi
46	"Tavaron" jome masjidi
47	"Tarnov" jome masjidi
48	"Xo'ja Jarroh" jome masjidi
49	"Hoji Abdusamat" jome masjidi
50	"Chag'atoy" jome masjidi
51	"Cho'yanchi" jome masjidi
52	"Yangi Ravot" jome masjidi
Paxtachi tumani	
53	"Yorman" jome masjidi
Kattaqo'rg'on shahri	
54	"Muhammad Naqibbek" jome masjidi
Nurobod tumani	
55	"Mulla Nazar" jome masjidi
56	"Nurdum ota" jome masjidi
57	"Oqsoy" jome masjidi
58	"Hazrati Ali" jome masjidi
59	"Xolbekjon" jome masjidi
Past Darg'om tumani	
60	"Nuril islom" jome masjidi
61	"Imom ota" jome masjidi
Jami: 61 ta	

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Karmakova Fara Saxiyevnaga (2023-yil 23-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Saparov Shamsiddin Yunusovichga (2022-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Toshbekov Abduallof Axrorovichga (2024-yil 5-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz

Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'Imas To'rayevich notarial idorasida marhum Kurbanov Sherbek Tashkentbayevichga (2022-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'Imas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi, 26-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasida marhum Farmonov Baxron Oblokulovichga (2015-yil 13-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum

Maxmadiyeva Muxibaga (2024-yil 28-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Kasimov Shuxrat Tolibovichga (2013-yil 4-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Muxtorova Toshbuvi Rustamovnaga (2024-yil 15-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Rustamova Xabibaga (1989-yil 26-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Kodirov Abduallof (2023-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Tursunov Sobir Boltayevichga (2024-yil 11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Kubayev Muslimjon Dustyorovichga (2022-yil 30-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

BEKOR QILINADI
Sotuvchi "AGROMIR BUILDINGS" MCHJ nomidan ishonchnoma asosida Sh.Sh. Shomahmadov va sotib oluvchi Xolmuradov Ravshan Aslonovichlar o'rtasida Samarqand shahri "Obod maskan" MFY, Qorasuv maskani 125-manzildagi ko'p qavatli turarjoy binosining yerto'la qismidagi omborxonasi binosining qurilish tagidagi maydoni 75,58 m.kv., foydali maydoni 65,28 m.kv.ni tashkil etgan qismi (5, 6, 7 va 8-xonalari) uchun "BEST REALTOR" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligidagi 2022-yil 27-aprelda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 097-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomaga asosida 2022-yil 27-aprelda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Muzaffar MUQIMOV.

1937-yil sentabr oyida Samarqand viloyatining Mitan tumanidagi 75-uchastka xalq tergovchisi Otoboy Karimov O'zbekiston SSR prokurori nomiga yozgan arizasida o'zini hozir ishlab turgan joyidan boshqa har qanday tumanga tayinlashini iltimos qilgan edi. Buning asosiy sababi qilib arizada NKVDning Mitan tumani bo'limi boshlig'i Fedyayev, ushbu bo'lim xodimi Sodiqov, ularga yaqindan yordam berayotgan tuman o't o'chirish bo'limi rahbari Raxmatullin bilan umuman ishlab bo'lmisligi ko'rsatilgan edi. Bundan tashqari, Fedyayev tomonidan begunoh kishilarning aksilinqilobiy faoliyatda ayblanib hibsga olinayotgani, odamlarni qo'rqitish yo'li bilan poraxo'rlik qilayotgani dalillar orqali bildirilgandi. Bunday yozishmalar ikki-uch oy davomida 57 sahifani tashkil etdi. Lekin respublika prokurori Sheyndlin arizalarni tekshirish uchun odam yuborish o'rniga, ularni e'tiborsiz qoldirdi. Bu hol NKVDning Mitan tumani boshlig'iga va yordamchilariga prokuratura xodimi ustidan turli ma'lumotlarni to'plash hamda uni aybdor qilish uchun katta imkoniyat yaratdi.

Mana, uning ustidan hibsga olishgunga qadar to'plangan hujjatlar va ko'rsatmalardan ayrimlari:

"Xalq tergovchisi Otoboy Karimov Mitan qishloq kengashi hududidagi "Oqdaryo" kolxozida vakil bo'lgan paytida bu xo'jalikda paxta topshirish rejasini barbod qilgan. Uning do'stlari - rais Ergash Omonov, o'rinbosari R.Sindorov, xo'jalik ishlar bo'lim mudiri N.O'roqov NKVDning tuman bo'limi tomonidan hibsga olingan, O.Karimov rais vazifasiga kattaqo'rg'onlik quloqning qizi Yoqubova degan ayolni tayinlatdi" (tuman yer-suv bo'limining boshlig'i G'.Sultonov ko'rsatmasidan).

"Xalq tergovchisi O.Karimovga men paxta ekilgan maydonlarni vaqtida sug'ormagan va ishlov bermagan, deb bir nechta kishilar ustidan jinoyi ish qo'zg'ash uchun hujjatlar to'plab topshirganman. Lekin Karimov bu odamlarga nisbatan hech qanday chora ko'rmadi. Tuman ijroiya qo'mitasi hay'atida uni ishdan olishni taklif qilganman. Ammo ijroiya qo'mita raisi I.Tojiboyev Karimovni himoya qildi. U hatto hozir tuman prokurori vazifasini bajarmoqda" (guohlardan birining NKVDda 1938-yil 10-yanvarda bergan ko'rsatmasidan).

"Bir kun men 1-MTS direktori Jamol Samadov stoli ustida o'ndan ziyod odamlar ismi-sharifi yozilgan ro'y-xatni ko'rdim. Bular kimlar, deb so'radim. Bular NKVD tomonidan nohaq ayblanganlar, deb javob berdi u. Xalq tergovchisi Karimov ham shu yerda edi" (tuman yer-suv bo'limining boshlig'i G'.Sultonov ko'rsatmasidan).

Mana shunday ko'rsatmalar tufayli Otoboy Karimov ustidan dasta-dasta hujjatlar to'plangan, NKVD xodimlari ishga kirishdi. 1938-yil 23-yanvarda O'zbekiston SSR NKVDsining Samarqand sektori boshlig'i, davlat xavfsizligi katta leytenanti Kalmikov imzosi bilan shunday qaror qabul qilindi:

"Men, O'zSSR NKVDsi Samarqand sektori boshlig'i, davlat xavfsizligi katta leytenanti Kalmikov Mitan tumani xalq tergovchisi bo'lib ishlayotgan fuqaro Karimovga nisbatan ochilgan tergov hujjatlarini ko'rib chiqib va bu materiallarni uni aksilinqilobiy-qo'zg'olonchilar guruhiga mansub ekanligini to'liq fosh etishini, ya'ni u tomonidan O'zSSR Jinoyat kodeksining 57-1 va 67-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlar sodir qilinganligini e'tiborga olib hamda O'zSSR Jinoyat-prosessual kodeksining 49-moddasiga asoslanib qaror qildim:

Fuqaro Karimov jinoyi javobgarlikka tortilib, hibsga olinib, xonadonida tintuv o'tkazilindi. Tergovdan va suddan bo'yin tovlamasligi uchun ehtiyot chorasi sifatida O'zSSR NKVDsi Samarqand sektori hibsxonasida saqlansin".

24-yanvar kuni uning bu qarorini O.Karimovning o'z nomiga yozgan arizalarga e'tibor bermagan respublika prokurori Sheyndlin darhol tasdiqlab beradi. Shunday qilib, o'sha "katta qirg'in" yillari yurtimizda o'n minglab begunoh kishilar boshiga ayovsiz kulfatlar yog'dirgan NKVDning qirg'in mashinasiga qarshi chiqmoqchi bo'lgan Mitan tumani prokuraturasi tergovchisi, 27 yoshli Otoboy Karimov 1938-yil 24-yanvar kuni ish joyida NKVDning Mitan tumani bo'limi xodimi Sodiqov tomonidan hibsga olinadi.

U 1911-yilda Jizzax tumani Xayrobod qishloq kengashi hududidagi Sharlok qishlog'ida tug'ilgan edi. Qamoqqa olingan paytida qaramog'ida 22 yoshli xotini Mayramxon, ikki oylik qizchasi Mamlakat, 43 yoshli onasi Yangish opa va 86 yoshli buvisi Oltin momo bo'lgan. Yuqorida aytganimizdek, unga nafaqat qandaydir aksilinqilobiy qo'zg'olonchilar guruhiga a'zolik, balki ushbu tashkilotga yangi odamlarni jalb etganlik, guruh rahbarlari topshirig'i bilan aksilinqilobchilarni fosh etmoqchi bo'lgan kolxozchilarni ta'qib qilgan, degan ayblar ham qo'yiladi.

1938-yil 4-fevral kuni u bilan O'zSSR NKVDsi Samarqand sektori 4-bo'limi tezkor vakili Riyanets birinchi so'roqni o'tkazadi.

Savol: Siz Mitan tumanida mavjud bo'lgan aksilinqilobiy-millatchilarning qo'zg'olonchi guruhi a'zosi sifatida hibsga olingansiz. Aytgich, ushbu tashkilotga qachon va kim tomonidan jalb etilgansiz?

Javob: Hech kim va hech qachon meni bunday tashkilotga jalb etmagan. Hech qachon bunday tashkilotga a'zo bo'lmaganman.

Oradan ko'p o'tmay xuddi shunday so'roqni NKVDning Mitan tumani bo'limi boshlig'i Sodiqov o'tkazadi. U ham aynan shu javobni oladi. 28-mart kuni ushbu bo'lim boshlig'i Fedyayev tomonidan o'tkazilgan



so'roqda u o'ziga qo'yilayotgan ayblarni ilk marta "tan olishga" majbur bo'ladi.

Savol: Siz tumanidagi mavjud aksilinqilobiy tashkilot a'zosi bo'lganligingizni tan olasizmi?

Javob: Takror aytaman, men hech qanday aksilinqilobiy tashkilot a'zosi bo'lgan emasman.

Savol: Yolg'on aytyapsiz. Sizga ushbu tashkilot rahbarlaridan Jumaniyoz Matniyozovning ko'rsatmalarini o'qib beraman. Bundan tashqari, 1-MTS direktori Jalol Samadov ham buni tasdiqlaydi...

Ana shu so'roqda u o'ziga qo'yilgan bunday "ayblov"larni ilk marta tan olishga majbur bo'ladi. Otoboy Karimovga bundan tashqari "aksilinqilobiy guruh" a'zolaridan yana o'n to'rt kishining ismi-sharifi yozilgan ro'yxatga ham qo'l qo'ydirishadi. Ularning barchasi NKVD tomonidan allaqachon hibsga olingan kishilar ro'yxati edi. U shuningdek, o'zi tomonidan aksilinqilobiy tashkilot safiga tumanidagi 1-MTS buxgalteri I.Po'latov va Yejov nomidagi kolxozning xo'jalik mudiri Amir Qilichev tortilganini ham "tan oladi"...

Savol: Aksilinqilobchilar guruhining qaysi yig'ilishlarida shaxsan ishtirok etgansiz va ularda nimalar muhokama qilingan?

Javob: Men aksilinqilobiy guruh yig'ilishlarida biror marta ham ishtirok etgan emasman. Umuman bunday yig'ilishlar bo'lgani haqida eshitganim yo'q. Tashkilotning boshqa a'zolari haqida ham hech narsa bilmayman. Shuning uchun faqat o'zim to'g'rimda gapirishim mumkin...

Shu yerda bir savol tug'iladi. Nega ikki oydan ziyod vaqt davomida o'ziga qo'yilayotgan ayblarning birortasini ham tan olmagan Otoboy Karimov mart oyining oxirlariga kelib ularni tan ola boshladi. Bunga javobni u hibsxonada turib, O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari va O'zSSR prokurori nomiga yozgan hamda qandaydir yo'llar bilan chiqargan xatlaridan topsa bo'ladi. Bu maktublarni keyinchalik (1939-yilda) uning "jinoiy ishi"ga tikilgan edi. Ma'lumki, 1937-yil sentabr-oktabr oylarida O'zSSR prokurori nomiga bitgan arizasida Mitan tumani "aksilinqilobiy faoliyatda" ayblanib, ko'plab begunoh kishilar NKVD tomonidan hibsga olinayotganini yozgan edi. Bundan tashqari, ushbu tashkilotning tuman bo'limi boshlig'i Fedyayev, xodimi Sodiqov, ularning ko'makchisi Raxmatullin bilan ishlashning hech iloji qolmagani bildirib, o'zini boshqa tumanga ko'chirishni iltimos qilgandi. Lekin endi uning ishini tergov qilish aynan ana shu kishilarga topshiriladi. U respublika prokurori nomiga yozgan xatida o'zining tinimsiz jismoniy va ruhiy azoblarga duchor qilinayotganini bayon etadi. Buning natijasida sog'lig'i kundan kunga yomonlashayotganligini bildiradi. Otoboy Karimov O'zbekiston SSR NKVDsining Samarqand sektori hibsxonasida Fedyayev, Sodiqov, Raxmatullinlar tomonidan 1938-yil 30- va 31-mart kunlari o'tkazilgan so'roq davomida qattiq kaltaklanganligini, yana 4-aprel kuni NKVD tuman bo'limi xodimi Sodiqov uni majburlab turli to'qilgan ko'rsatmalarga imzo chektirganligini yozadi.

Lekin bu gal ham ushbu arizalar respublika prokurori tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi. Mana shu jismoniy va ruhiy tazyiqlar tufayli u bir necha marta hibsxonadagi kasalxonaga yotqiziladi. 1938-yil 16-mayda O'rta Osiyo Harbiy okrugi harbiy prokurori o'rinbosari Budargin 12 kishining (Mitan tumanidan) jinoiy ishini ko'rib chiqish uchun SSSR Oliy Sudining harbiy kollegiyasiga o'tkazish haqida qaror qabul qiladi. Ularning barchasiga nisbatan O'zbekiston Jinoyat kodeksining 57-1, 58, 63,

67-moddalari qo'llanilgan edi.

Bu ro'yxatda Otoboy Karimovning ham nomi bor edi. Lekin negadir o'sha yilning oktabr oyida ro'yxatdagi boshqa kishilar ustidan o'tkazilgan sud jarayonida (agar shunday deb atash mumkin bo'lsa) u qatnashmaydi. Ehtimol ahvoli og'irlashib, kasalxonada yotganligi sababidir. Bunga isbotni endilikda Fedyayevning o'rniga kelgan davlat xavfsizligi serjanti Chernixning Otoboy Karimovga nisbatan olib borayotgan tergovni uning kasalligi tufayli 1939-yil 18-yanvardan e'tiboran vaqtincha to'xtatish haqidagi qaroridan ham topsa bo'ladi.

Shuningdek, 1938-yil kuz oylarida "Mitandagi aksilinqilobiy-millatchilar guruhi a'zolari" deb topilgan yana o'ttiz kishining ishi Samarqand viloyat sudining maxsus kollegiyasi tomonidan ko'rib chiqildi. "Qovun qovundan rang olar", deganlaridek ushbu "maxsus kollegiya" o'zlarining SSSR Oliy Sud Harbiy kollegiyasi "uchligi"dagi hamkasblaridan qolishmaslikka harakat qildi. "Aksilinqilobiy guruh a'zosi", deb topilgan Mitan tumani ijroiya qo'mitasi umumiy bo'lim mudiri Gamir Muhiddinov 20 yilga, kommunal xo'jaligi boshlig'i Turum Shaylanov 25 yilga, tuman pillachilik idorasi boshlig'i Qudrat Xudoyov 15 yilga, Mitan MTSning buxgalteri Siroj Muslimov 15 yilga, markaziy magazin direktori Maxamat Qo'ldoshev 20 yilga, tuman maktablaridan birining o'qituvchisi Sagit Tarziyev 15 yilga, maktab direktori vazifasini bajargan Ismoil Abdulatipov 15 yilga qamoqqa yuborildi. Qolganlarining qismati ham shu tariqa hal etildi.

Bu "jinoiy ish" nechog'lik to'qib-bichilganini shundan ham ko'rish mumkinki, Otoboy Karimov bilan unga qarshi ko'rsatma berganlarning birortasi yuzlashtirilmaydi. Ehtimol, NKVD xodimlari bu yuzlashtirishlar oqibatida prokuratura tergovchisi bo'lib ishlagan O.Karimov ularning to'qigan tuhmatlarini boshqalar oldida ham fosh etib tashlashidan cho'chishgandir...

Lekin ko'p o'tmay bunga hojat ham qolmaydi. Tergov materiallariga tikilgan va NKVDning Samarqand sektori ichki turmasi kasalxonasining bosh vrachi imzo chekkan hujjatda aytilishicha, Otoboy Karimov 1939-yil 13-aprelda vafot etgan. O'limining sababi qilib qandaydir yuqumli kasallik ko'rsatilgan. Lekin aslida-chi? Uning besh-olti oylab hibsxona kasalxonasida yotishi va oxir-oqibatda vafot etishining asosiy sababi NKVDning yerto'alarida yegan kaltaklari yoshqacha azoblari bo'lmadimikan?!

Harqalay endigina 28 yoshga kirgan, kuch-quvvatga to'lgan bir yigitni qatag'onning qonli suroni shu tariqa o'z domiga tortgan edi.

Xonliklar davrida
haj ziyorati

Haj ziyorati musulmonlarning islom farzlaridan birini bajarishi bilan birga xalqlar o'rtasidagi madaniyatlarga aloqalarning rivoji uchun ham muhim. O'rta Osiyo xalqlarining tarixida haj va umra ziyorati safarlari, uning yo'l tarmoqlari va muhim yo'nalishlari tarixiy manbalarda keng yoritilgan.

XVII-XVIII asrlarda haj ziyorati-ga boruvchilar savdo karvonlariga qo'shilib, bir nechta mamlakatlar hududidan o'tar edi. O'rta Osiyo xonliklari aholisi haj ziyoratini asosan uch yo'nalishdagi xalqaro aloqa yo'llarida amalga oshirgan. Shimoliy yo'nalish - Rossiya imperiyasi va Usmonlilar hududi orqali, janubiy yo'nalish - Afg'oniston orqali Hindiston portlariga chiqib, suv yo'li bilan va markaziy yo'nalishda - Eron orqali borilgan. Ammo tez-tez ro'y beradigan urushlar oqibatida bu yo'llarning xavfli ekanligidan ziyoratchilar yo'nalishlarni ma'lum vaqt o'zgartirib turgan. Xonliklar davrida fuqarolarning haj ziyoratiga xavfsiz va betalafot borib kelishlari elchilik aloqalari bilan hal etilgan. Xususan, Buxoro va Xiva xonligidan ayni shu maqsadda Rossiya imperiyasi, Eron hamda Usmonlilar imperiyasiga bir nechta elchilik safarlari tashkil etilgan haqida ma'lumotlar saqlangan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi ortidan yurtimiz musulmonlari muqaddas haj ziyoratini imperiya qonunlariga bo'ysungan holda bajarardi. Bu davrda asosan "Rossiya - Jidda - Bombay" yo'nalishida kema qatnovi yo'lga qo'yiladi. Ziyoratchilar o'zlarining moddiy ahvollaridan kelib chiqib, temir yo'l, paroxod kabi turli transport vositalari bilan haj ziyoratini ado etib, yurtiga qaytishadi. O'sha davrda Yevropa va mahalliy tillarda chop etilgan matbuotda haj ziyorati, ziyoratchilar va ularning xotiralari keng yoritilgan.

O'rta Osiyo aholisining haj ziyorati safarlari va yo'l tarmoqlari tarixining hali o'rganishga muhtoj yo'nalishlaridan biri, deyish mumkin. Bu yo'llar bugungi kunda ma'lum darajada o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa-da, xalqlarning o'zaro madaniy aloqalari xususida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Mansur KOMILZODA.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

25-DEKABR
Ali ABDULQOSIMOV - 1934-yilda Forish tumanida tug'ilgan. Gidrometeorolog-landshaftshunos olim. «El-yurt hurmati» ordeni sohibi.

26-DEKABR
Vahob RAHIMOV - (1934-2014) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

28-DEKABR
Doni ZOKIROV - (1914-1985) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti, kompozitor.

29-DEKABR
Ibrohim NURMONOV - (1936-2007) Past Darg'om tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

30-DEKABR
Ravshan G'ULOMOV - 1960-yilda Samarqand tumanida tug'ilgan. Sambo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Sambo bo'yicha faxriyari o'rtasida jahon chempioni.

31-DEKABR
Akbar OTAXO'JAYEV - (1926-1994) Turkiston shahrida tug'ilgan. Fizik olim. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

YANGI YIL ARAFASIDA



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 467 nusxada chop etildi. Buyurtma 667. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

